



ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA AUTSORSINGNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Shodmonov Shokir

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
ORCID: 0009-0003-4505-8046
shdshodmonov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqarish korxonalarida autsorsingni joriy etishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Autsorsingning ta'rif, turlari, afzalliklari va zamonaviy amaliyoti misollar bilan ko'rsatilgan. Korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, resurslarni samarali taqsimlash va innovatsiyalarni joriy qilishda autsorsingning ahamiyati ta'kidlangan. Ilmiy va amaliy tajribalar asosida autsorsingni kiritish strategiyalari, noprofil funksiyalarni tashqi mutaxassislariga topshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari keltirilgan.

Kalit so'zlar: autsorsing, ishlab chiqarish korxonasi, biznes-protsesslar, noprofil funksiyalar, raqobatbardoshlik, strategiya.

ЗНАЧЕНИЕ ВНЕДРЕНИЯ АУТСОРСИНГА НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Шодмонов Шокир

Ташкентский университет информационных
технологий имени Мухаммада Аль-Хорезми

Аннотация. В статье анализируются теоретические и методологические основы внедрения аутсорсинга на производственных предприятиях. С использованием примеров раскрываются сущность, виды, преимущества и современная практика аутсорсинга. Подчеркивается значение аутсорсинга в повышении конкурентоспособности предприятий, эффективном распределении ресурсов и внедрении инноваций. На основе научных и практических исследований представлены стратегии внедрения аутсорсинга, передачи непрофильных функций внешним специалистам и пути повышения производственной эффективности.

Ключевые слова: аутсорсинг, производственное предприятие, бизнес-процессы, непрофильные функции, конкурентоспособность, стратегия.

THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING OUTSOURCING IN MANUFACTURING ENTERPRISES

Shodmonov Shokir

Tashkent University of Information
Technologies named after Muhammad al-Khorazmi

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations of implementing outsourcing in manufacturing enterprises. The definition, types, advantages, and modern practices of outsourcing are illustrated with examples. The importance of outsourcing in enhancing enterprise competitiveness, efficient resource allocation, and the implementation of innovations is emphasized. Based on scientific research and practical experience, strategies for introducing outsourcing, delegating non-core functions to external specialists, and ways to improve production efficiency are presented.

Keywords: outsourcing, manufacturing enterprise, business processes, non-core functions, competitiveness, strategy.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, mavjud resurslardan oqilona va maqsadli foydalanish hamda bozorda barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlash eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, texnologik taraqqiyot va bozor talablarining tezkor o'zgarishi korxonalardan o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda. Bunday sharoitda boshqaruv usullarini modernizatsiya qilish va ilg'or iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday samarali mexanizmlardan biri sifatida outsorsing amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Outsorsing tushunchasi korxonaning ayrim biznes-funksiyalari, ishlab chiqarish jarayonlari yoki xizmat turlarini tashqi, yuqori malakali va maxsuslashgan tashkilotlarga topshirish jarayoni sifatida ta'riflanadi. Bu orqali korxona o'zining ichki resurslarini optimal taqsimlash, boshqaruv xarajatlarini qisqartirish hamda asosiy faoliyat turlariga to'liq e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Autsorsingni joriy etish natijasida korxonalar zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadi, chunki outsorsing xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar muayyan sohada chuqur ixtisoslashgan bo'lib, yuqori professional salohiyatga ega hisoblanadi. Bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining sifati oshishiga, mahsulot tannarxining pasayishiga va mehnat unumdorligining o'sishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish, sanoat tarmoqlarini isloh qilish va ularni jahon standartlariga moslashtirish jarayonlari doirasida outsorsing munosabatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, «O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy-huquqiy tuzilmasini dunyoning yetakchi neft-gaz kompaniyalari faoliyatiga xos bo'lgan boshqaruv modellariga muvofiqlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Ushbu jarayonda jamiyat tasarrufidagi korxonalarda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, outsorsing xizmatlarini joriy etish hamda ularni tizimli ravishda rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bu, o'z navbatida, neft-gaz sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish, boshqaruv tizimini soddalashtirish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijada, outsorsingni keng joriy etish korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, strategik rivojlanish maqsadlariga erishish hamda milliy iqtisodiyotning umumiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ma'lumki, 90-yillar boshiga qadar "outsorsing" termini mavjud bo'lmagan, u ilk bor 1989 yilda yengil sanoat kompaniyalarida qo'llanilgan va keyinchalik dunyo iqtisodiyotida keng tarqalgan. Natijada juda ko'p olimlar o'z tadqiqotlarini olib borgan. Masalan, 2003 yilda chop etilgan Rossiyalik olimlar Kalendjyaning (2003) "Noprofil funksiyalarni va zarur resurslarni ularni samaraliroq bajaradigan tashqi ijrochiga topshirish haqida"gi, Anikin, Irina Lvovna Rudaya (2009) "Tashqi kompaniya xizmatlaridan foydalanish; biznes jarayonlarni boshqa tashkilotga topshirish haqidagi maqollarida outsorsing xizmatlaridan foydalanishni taklif qilgan. Shuningdek, 2004-yilda chop etilgan Brayan Xeyvudning (2001) (AQSh/Britaniya) "Shartnoma asosida xodimlarni tashqi kompaniya orqali boshqa tashkilotda ishlatish", 2009 yilda chop etilgan Young Bong Bong Chang va Viijay Gurbaxanining (2017) (Janubiy Koreya) "Axborot texnologiyalari outsorsingi (ITO) axborot tizimlari xizmatlarini xarid qilishning asosiy shakli bo'lib, xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti ko'pincha ichki IT bo'limlariga nisbatan tashqi provayderlarni afzal ko'rishini ko'rsatadi degan fikrlari. Shular jumlasidandir. 2024-yilda chop etilgan Anna Revva (2019) (Rossiya): Maqolasida outsorsing mavzusidagi nazariy materiallarni nazarda tutadi — ya'ni outsorsing tushunchasi, ish beruvchi tashkilotning funksiyalarni tashqi boshqaruvchi (external executor)ga topshirishi bo'yicha tushunchalar

borligini tafsillaydi. 2020 yilda chop etilgan Shukurov Jahongir Sa'dulla o'g'li va Umarova Durdona Abdumannabovnaning maqolasida "Yordamchi funksiyalarni (buxgalteriya, kadrlar, ofis xizmatlari) tashqi mutaxassisga topshirish orqali faoliyatni optimallashtirish" lozimligi haqida fikrlar bildirilgan¹. Shuningdek, 2024 yilda chop etilgan Raxmonova Aziza Tolibovnaning (2024) maqolasida O'zbekistonda outsorsingni tashkil etishning afzalliklari tahlil qilinadi. 2023 yilda chop etilgan Babadjanovning² "Moliyaviy funksiyalarni (audit, hisob, nazorat) tashqi mutaxassislarga berish orqali xarajatlarni optimallashtirish" yoki Nilufar Kaxarovaning (2025) "Resurslardan tejimli foydalanish va xizmat sifatini oshirish maqsadida biznes jarayonlarni tashqi provayderga o'tkazish" haqidagi ilmiy mulohazalari shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalarida outsorsingni joriy etishning nazariy asoslarini o'rganish, uning afzalliklari, xavf-xatarlari va amaliyotdagi o'rnini aniqlash maqsad qilib olindi. Tadqiqotda nazariy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlar qo'llanildi. Shuningdek, **manbalar taxlili (literature review)** usuli orqali outsorsing tushunchasining evolyusiyasi, uning turlari, ishlab chiqarish sohasidagi o'rne va xalqaro tajriba o'rganildi. **tahliliy va qiyosiy tahlil (comparative analysis)** metodlari asosida turli mamlakat olimlarining yondashuvlari solishtirildi. **SWOT-tahlil** o'tkazilib, outsorsingning ishlab chiqarish sohasi uchun kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xatarlari hamda korxonalar uchun strategik ahamiyati baholandi. **ilmiy xulosalarni shakllantirish usuli** orqali mavjud nazariy yondashuvlar va tahlil natijalari umimlashtirilib, qiyosiy tadqiqotlardan kelib chiqqan holda outsorsingni joriy etishning asosiy nazariy parametrlari aniqlandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Autsorsing biznes-funksiyalar va biznes-jarayonlarni tashqi tashkilotlarga topshirish orqali amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, bugungi kunda O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarining qayta tuzilishi dasturining bir qismi sifatida qaralmoqda. Bu tartib yoki keng cheklovlar mavjud bo'lmagan, yoki faoliyat turining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq hollarda qo'llaniladi. Outsorsinglar tomonidan taklif etiladigan yechimlar korxonaning barcha jarayonlari faoliyatini qayta tashkil etishga katta ta'sir ko'rsatadi. Natijada, korxonalar logistika, marketing, moliyaviy nazorat, buxgalteriya, kadrlar hisobi, ishlab chiqarish jarayonlari va boshqa ko'plab funksiyalarni outsorsingga berish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda va undan foydalanmoqda. Olib borilgan tahlillar natijasida muallif turli ilmiy maktablar tomonidan outsorsing tushunchasiga berilgan ta'riflarni vaqt kesimida umimlashtirdi.

Korxonalar logistika, marketing, moliyaviy nazorat, buxgalteriya, kadrlar hisobi va boshqa jarayonlarni outsorsingga topshirish orqali quyidagi maqsadlarga erishadi:

Rasmda ko'rsatilganidek, outsorsing natijalarini quyidagicha izohlash mumkin, masalan, saralangan resurslardan oqilona foydalanishda outsorsing orqali korxona o'z faoliyatida eng zarur va samarali resurslarga e'tibor qaratadi, ortiqcha xarajatlar kamayadi. **Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishda** ixtisoslashgan outsorsing kompaniyalari orqali ilg'or texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. **Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari sifatining oshishi** mutaxassislarga topshirilgan vazifalar yuqori sifatda bajarilib, mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligi ortadi. **Iqtisodiy samaradorlikning ta'minlanishi** xarajatlarni optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishish imkoni paydo bo'ladi.

Shuningdek, **korxonalarda outsorsingning amaliy afzalliklarini quyidagicha tahlil qilish mumkin.**


¹ https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Article_14.pdf?

² https://uniwork.buxdu.uz/resurs/30084_1_7FC55200CA2624DF598B20DACA7853CE0FF509DB.pdf?



1-rasm. Outsorsing natijalari

Autsorsing korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi. U, avvalo, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Korxonaning asosiy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan xizmat turlarini, jumladan ofis texnikalarini ta'mirlash, transport xizmatlari, klining, axborot texnologiyalari va boshqa yordamchi funksiyalarni tashqi tashkilotlarga topshirish natijasida doimiy xarajatlar kamayadi, ekspluatatsion xarajatlar optimallashtiriladi.



2-rasm. Outsorsingning afzalliklari

Shu bilan birga, outsorsing xizmat sifati oshishiga olib keladi. Tashqi kompaniyalar muayyan sohada ixtisoslashgan, yuqori malakali mutaxassislar hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarga ega bo'lgani sababli xizmatlar belgilangan standartlar asosida va yuqori sifat darajasida bajariladi. Bu esa korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarning ishonchliligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Autsorsing resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatini ham yaratadi. Korxona rahbariyati va xodimlari o'z diqqat-e'tiborini asosiy ishlab chiqarish jarayonlariga qaratgan holda strategik vazifalarni hal qilish bilan shug'ullanishi mumkin. Moliyaviy, mehnat va ishlab chiqarish resurslarining bo'shashi esa yangi mahsulot turlarini joriy etish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda bozor ulushini kengaytirishga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, outsorsing orqali korxonalar innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Autsorsing xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar doimiy ravishda o'z faoliyatini takomillashtirib, ilg'or texnologiya va usullarni joriy etib boradi. Bu esa korxonalarga katta investitsiya kiritmasdan turib innovatsion yechimlarni tezkor joriy qilish imkonini beradi.

Autsorsingning yana bir muhim afzalligi — bozor talablariga tez moslashish imkoniyatidir. Bozor kon'yunkturasi o'zgargan sharoitda korxonalar ish hajmini tez oshirish yoki kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, talab oshgan davrda qo'shimcha mutaxassislar va vaqtinchalik xizmatlar jalb etiladi, talab pasayganda esa ortiqcha xarajatlarsiz faoliyat ko'lami qisqartiriladi. Bu esa korxonaning bozorda barqaror va raqobatbardosh faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

1-jadval

Kompaniya uchun outsorsingdan olingan yillik daromad o'sishi foizi va asosiy samaradorlik natijalari


Kompaniya	Davlat	Autsorsing sohalari	Samaradorlik natijalari	Yillik daromad o'sishi (%)
IKEA	Shvesiya	Logistika, infratuzilma, IT xizmatlar	Asosiy resurslarni chakana savdoga yo'naltirib samaradorlik oshgan	40-50%
Nike	AQSh	Asosiy ishlab chiqarish, dizayn va savdo faoliyati	Asosiy ishlab chiqarishni tashqarga topshirib daromadni sezilarli oshirgan	35-45%
Gazprom	Rossiya	Noprofil funksiyalar, IT, infratuzilma	Autsorsing orqali xarajatlarni qisqartirish va daromadni oshirish	20-30%
SIBUR	Rossiya	Logistika, qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar	Daromad va samaradorlik sezilarli darajada o'sgan	15-25%
LUKOYL	Rossiya	IT, buxgalteriya, noprofil funksiyalar	Samaradorlik va daromad oshgan	18-28%
NOVATEK	Rossiya	Noprofil funksiyalar, logistika	Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	12-20%
Rostelekom	Rossiya	IT, kommunikatsiyalar	Samaradorlik va raqobatbardoshlik oshgan	10-18%
Aeroflot	Rossiya	Mijozlarga xizmat, IT, logistika	Xizmatlar sifatini yaxshilash va xarajatlarni qisqartirish	15-22%
O'zbekneftgaz	O'zbekiston	Noprofil funksiyalar, ta'minot, logistika	Autsorsing orqali xarajatlarni qisqartirish va samaradorlikni oshirish	10-15%

Umuman olganda, autsorsing korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda bozor talablariga moslashuvchanlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijiy va Rossiya kompaniyalari autsorsingni joriy qilish orqali daromadini sezilarli darajada oshirgan, O'zbekiston kompaniyalari ham shunday yo'lida harakat qilmoqda, ammo o'sish nisbatan kamroqni tashkil qilmoqda.

Tadqiqotlarimil davomida olib borilgan tahliliy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, «O'zbekneftgaz» AJ kompaniyasi umumiy aktivlari tarkibida uzoq muddatli aktivlar ulushi ortib borayotganligi hamda shu bilan birga uzoq muddatli aktivlar tarkibida asosiy vositalar ulushi ortib borayotganligining guvohi bo'lamiz.

Quyida keltirilgan diagrammaga nazar tashlasak, 2014 yil yakunlari bo'yicha korxona umumiy aktivlarining 52,2 foiz qismi uzoq muddatli aktivlar hamda 47,8 foizni aylanma aktivlar tashkil etgan bo'lsa va jumladan uzoq muddatli aktivlarning 31,6 foiz qismi asosiy vositalardan tarkib topgan edi. 2024 yil yakunlari bo'yicha ma'lum bo'ldiki, umumiy aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar 92,1 foizni va aylanma aktivlar 7,9 foizni tashkil etib, jumladan uzoq muddatli aktivlarning 58,8 foiz qismi asosiy vositalardan tarkib topganligini e'tirof etish lozim.



3-rasm. 2014-2024 yillarda «O'zbekneftgaz» AJ aktivlarida uzoq muddatli aktivlar va asosiy vositalar ulushi, foizda

Manba: «O'zbekneftgaz» AJ yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu holat o'z navbatida «O'zbekneftgaz» AJning umumiy faoliyat samaradorligiga ta'sir o'tkazmasdan qolmagan. Kuzatilgan yillarda korxona 2014-2018 yillarda moliyaviy zarar bilan faoliyat yuritgan bo'lsa, 2020-2024 yillarda aksiyadorlik jamiyati foyda bilan yakunlagan bo'lsada umumiy faoliyat hamda aktivlar rentabelligi o'ta past holda qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlili natijalari «O'zbekneftgaz» AJ va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda korxonalar faoliyati bilan bo'lmagan hamda asosiy faoliyat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etmaydigan yordamchi tarkibiy bo'linmalarni korxonalar tarkibidan chiqarib, yordamchi xizmatlarni autsorsing korxonalarining xizmatlariga o'tkazish zaruriyatini asoslab beradi.

Shu o'rinda SWOT tahlil orqali korxonalarda autsorsingning ta'sirini tahlil qilamiz.

SWOT tahlil

S — Strengths (Kuchli tomonlar)	W — Weaknesses (Kamchiliklar)
1. Asosiy faoliyatga e'tiborni kuchaytirish 2. Xarajatlarni qisqartirish va optimallashtirish 3. Maxsus bilim va texnologiyalarga ega bo'lish 4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	1. Tashqi provayderga yuqori darajada bog'liqlik 2. Nazoratning qisman yo'qolishi 3. Ma'lumot xavfsizligi riski 4. Kelishuvlarni rivojlantirish va monitoring xarajatlari
O — Opportunities (Imkoniyatlar)	T — Threats (Xavf-xatarlar)
1. Ishlab chiqarishni tez masshtablashtirish 2. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish 3. Innovatsion yechimlar va professional xizmatlarga erishish 4. Xalqaro bozorga chiqish imkoniyati	1. Outsorser faoliyatidagi nosozliklar. 2. Qonunchilik va regulyator talablari o'zgarishi 3. Mahalliy mehnat bozorida raqobatning kuchayishi 4. Xizmat sifatining o'zgaruvchanligi

Ushbu maqolada amalga oshirilgan SWOT-tahlil ishlab chiqarish korxonalarida outsorseringni joriy etishning asosiy jihatlarini har tomonlama yoritib berdi. Tahlil natijalariga ko'ra, outsorsering korxonalar uchun bir qator kuchli tomonlarga egaligi aniqlandi. Jumladan, noasosiy funksiyalarni tashqi ijrochilarga topshirish orqali asosiy faoliyatga e'tiborni kuchaytirish, xarajatlarni optimallashtirish, zamonaviy texnologiyalar va malakali mutaxassislardan foydalanish imkoniyati paydo bo'lishi kabi sohalar outsorseringning strategik afzalliklarini belgilab berdi. Bu esa korxonaning raqobatbardoshligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, tahlil outsorseringning zaif tomonlarini ham aniqlab berdi. Xususan, tashqi provayderga bo'lgan bog'liqlikning kuchayishi, xizmat sifatini to'liq nazorat qilish imkoniyatining kamayishi, ma'lumot xavfsizligi bilan bog'liq xatarlar va shartnoma tuzish hamda uni nazorat qilish jarayonidagi qo'shimcha xarajatlarni outsorseringni amalga oshirishda asosiy cheklovlari sifatida qayd etildi.

Xulosa va takliflar.

Ishlab chiqarish korxonalarida outsorseringni joriy etish — zamonaviy raqobat muhitida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va innovatsion yechimlarga ega bo'lishni ta'minlaydigan muhim strategik instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot davomida o'tkazilgan nazariy tahlillar va SWOT-tahlil natijalari outsorseringning korxona rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berdi. Jumladan, noasosiy funksiyalarni tashqi ijrochiga topshirish orqali korxonaviy resurslarning asosiy ishlab chiqarish jarayonlariga konsentratsiya qilinishi, hozirgi vaqt talablariga mos texnologik jihozlanish va yuqori malakali mutaxassislar mehnatidan foydalanish imkoniyati paydo bo'lishi uning asosiy afzalliklaridan biri ekanligi tasdiqlandi. Bu esa korxonalarni bozorda barqaror va raqobatbardosh holatda ushlab turishga xizmat qiladi.

Biroq outsorseringni joriy etish bir qator xavf va cheklovlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, tashqi provayderga bog'liqlikning ortishi, xizmat sifatini doimiy nazorat qilishdagi mushkulliklar, ma'lumot xavfsizligi va maxfiylik masalalari korxona uchun jiddiy strategik tahdidlar hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunchilikdagi o'zgarishlar yoki provayder faoliyatidagi muammolar ishlab chiqarish jarayoni barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. SWOT-tahlil shu jihatlarni aniq ko'rsatib, outsorseringni amalga oshirishda to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishning muhimligini asoslab berdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, autsorsing korxonalar uchun faqat yordamchi mexanizm emas, balki strategik rivojlanish, innovatsion yangilanish va xalqaro bozorlarga faol chiqish uchun muhim drayver sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Shuning uchun autsorsingni joriy etishda kompleks yondashuv, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, shartnomaviy jihatdan xavflarni cheklash va doimiy monitoringni ta'minlash korxonalar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, autsorsing ishlab chiqarish korxonalari uchun strategik samaradorlikni ta'minlaydigan, resurslardan unumli foydalanish va innovatsion rivojlanishga olib keladigan zamonaviy boshqaruv vositasidir. Uning to'g'ri yo'lga qo'yilishi korxonaning barqaror o'sishi, raqobatbardoshligini oshirishi va bozorda ustuvor o'rin egallashini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Anna Revva, (2019) *Post-graduate student, School of Law, Far Eastern Federal University, Vladivostok, Russia.*

Boris Aleksandrovich Anikin, Irina Lvovna Rudaya. (2009) *Autsorsing i autstaffing: vysokie texnologii menedjmenta: uchebnoe posobie* [Vysshee obrazovanie INFRA-M](#).

Brian Heywood J. (2001) *The Outsourcing Dilemma: The Search for Competitiveness* [Pearson Education books The Outsourcing Dilemma: The Search for Competitiveness, J. Brian Heywood](#). Financial Times Prentice Hall.

Chang, Young Bong; Gurbaxani, Vijay; and Ravindran, Kiron. (2017). "Information Technology Outsourcing: Asset Transfer and the Role of Contract," *MIS Quarterly*, (41: 3) pp.959-973.

Kalendjyan, Sergey Oganovich. (2003) *Autsorsing i delegirovanie polnomochiy v deyatel'nosti kompaniy [Tekst] / S. O. Kalendjyan ; Akad. nar. xoz-va pri Pravitel'stve Ros. Federatsii. –Moskva: Delo,. -269, il. : 22 sm.; ISBN 5-7749-0332-X.*

Nilufar Kaxarova (2025). 'O'ztemiryo'lyo'lovchi' ajning asisiy faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari. *Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research)*. [online] doi:<https://doi.org/10.5281/zenodo.17100376>.

O'zbekneftgaz» AJ yillik moliyaviy hisobotlari 2014-2024-yy.

Rakhmonova Aziza Tolibovna. (2024). *Advantages Of Organizing Outsourcing In Uzbekistan*. *American Journal of Economics and Business Management*, 7(9), 668–674. <https://doi.org/10.31150/ajebm.v7i9.2923>.